

Taqqoslamalar va qoldikli bo'lish bilan bo'g'liq muammolarni hal qilishda Xitoy Qoldiqlar Teoremasi.

G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li

Namangan Davlat Pedagogika instituti Aniq fanlar kafedrası o'qituvchisi

Xo'jamqulov Ravshanbek Hasanboy o'g'li

Ibrohimjonova Mohinabonu Jamoliddin qizi

Namangan Davlat Pedagogika instituti Matematika – informatika yo'nalishi 2-kurs talabalari

Annotation: *This article provides detailed information about the concept of modular arithmetic and its main elements, the remainder and the Chinese Remainder Theorem. Modular arithmetic, that is, the concept of remainder, is widely used in number theory and mainly involves working with the remainder that remains after dividing an integer by another integer. A step-by-step solution of the algorithm for the Chinese Remainder Theorem is also described.*

Keywords: Module, arithmetic, remainder, algorithm, remainder, comparison, ChRT, mathematics, algebra.

Аннотация: *В этой статье представлена подробная информация о понятии модульной арифметики и ее основных элементах, делении на остаток и китайской теореме об остатке. Модульная арифметика, то есть понятие деления остатка, широко используется в теории чисел и в основном предполагает работу с остатком, который остается в результате деления целого числа на другое целое число. Также описано пошаговое решение алгоритма Китайской теоремы об остатках.*

Ключевые слова: Модуль, арифметика, остаток, алгоритм, деление остатка, сравнение, ХКО, математика, алгебра.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada modulyar arifmetika tushunchasi va uning asosiy elementlari bo'lgan qoldikli bo'lish va Xitoy Qoldiqlar Teoremasi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Modulyar arifmetika, ya'ni qoldikli bo'lish tushunchasi sonlar nazariyasida keng qo'llaniladi va asosan biror butun sonni boshqa bir butun songa bo'lish natijasida qoladigan qoldiq bilan ishlashni nazarda tutadi. Shuningdek, Xitoy Qoldiqlar Teoremasi algoritmining qadam – baqadam yechimi ham bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: Modul, arifmetika, qoldiq, algoritm, qoldikli bo'lish, taqqoslama, XQT, matematika, algebra.

Kirish

Modulyar arifmetika – matematikaning sonlar nazariyasiga oid bo'lib, unda sonlar ustida “Qoldikli bo'lish” amali asosida operatsiyalar bajariladi. Qoldikli bo'lish va taqqoslamalar algebraik hisoblashlarda, ayniqsa, kriptografiya va kompyuter ilmlarida keng qo'llaniladi. Bu maqolada qoldikli bo'lish bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari muhokama qilinadi.

Modulyar arifmetika ikki son o'rtasidagi taqqoslash orqali qoldiqni hisoblashni nazarda tutadi. Ikkita son a va b sonlari m modul bo'yicha teng, ya'ni a va b sonlarini m ga bo'lgandagi qoldiqlar teng bo'lsa, bu quyidagicha ifodalanadi:

$$a \equiv b \pmod{m}$$

Modulyar tenglamalarda taqqoslamalar eng keng tarqalgan muammolardan biri hisoblanadi. Eng oddiy ko‘rinishdagi modulyar tenglama quyidagicha bo‘lishi mumkin:

$$ax \equiv b \pmod{m} \quad [2,4,6,8]$$

Qoldiqli bo‘lish va Xitoy Qoldiqlar Teoremasi (XQT)

Xitoy qoldiqlar teoremasi modulyar arifmetikada qoldiqli bo‘lish bilan bog‘liq murakkab muammolarni yechish uchun samarali usuldur. [1-11]

Teorema: Aytaylik,

$$x \equiv a_1 \pmod{m_1}$$

$$x \equiv a_2 \pmod{m_2}$$

⋮

$$x \equiv a_k \pmod{m_k}$$

va m_1, m_2, \dots, m_k sonlari o‘zaro tup bo‘lsa, bu tizimning yagona yechimi mavjud.

Taqqoslamalar sistemasining har qanday ikkita yechimini $m = m_1 \cdot m_2 \cdot \dots \cdot m_k$ ga bo‘lganda bir xil qoldiq qoladi.

Isbot: Faraz qilaylik, $(m_i, \frac{m}{m_i}) = 1, i = 1, 2, \dots, n$ shart o‘rinli bo‘lsin.

$\exists b_i \in N, i = 1, 2, \dots, n$ uchun $\frac{m}{m_i} \cdot b_i \equiv 1 \pmod{m_i}$ o‘rinli bo‘lsin, u holda taqqoslamalar xossasiga ko‘ra $\frac{m}{m_i} \cdot b_i \cdot a_i \equiv a_i \pmod{m_i}$ bo‘ladi. U holda $x_0 = \sum_{i=1}^n \frac{m}{m_i} \cdot b_i \cdot a_i$ sonini qaraylik. Bu son uchun

$$x_0 \equiv \sum_{i=1}^n \frac{m}{m_i} \cdot b_i \cdot a_i \pmod{m_i} \equiv \frac{m}{m_i} \cdot b_i \cdot a_i \pmod{m_i} \equiv a_i \pmod{m_i}$$

bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, x_0 soni teoremani qanoatlantiradi.

Aytaylik, x_1 soni ham taqqoslamalar sistemasining yechimi bo‘lsin. U holda $x_1 \equiv x_0 \pmod{m_i} \Rightarrow x_1 - x_0 \equiv 0 \pmod{m_i} \Rightarrow (x_1 - x_0) : m_i$, bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, teorema isbotlandi. [1-9]

Xitoy Qoldiqlar Teoremasini qo‘llash usuli: har bir m_i bo‘yicha

$M = m_1 \cdot m_2 \cdot \dots \cdot m_k$ modulini hisoblab olamiz. Har bir modul m_i uchun quyidagi miqdorni hisoblaymiz:

$$M_i = \frac{M}{m_i}$$

topilgan har bir M_i uchun y_i sonni, ya‘ni bu ikki sonning ko‘paytmasini m_i bilan taqqoslaganda 1 qoldiq qoladigan sonni topamiz:

$$M_i y_i \equiv 1 \pmod{m_i}$$

y_i sonini M_i uchun teskari element deb ham atashimiz mumkin.

Umumiy yechimni

$$x \equiv \sum_{i=1}^k a_i \cdot M_i \cdot y_i \pmod{M} \quad (1)$$

ushbu formuladan foydalanib tizimdagi barcha modullarga mos keladigan yagona x qiymatini topamiz.

1-misol. Quyidagi tenglamalar tizimining yechimini toping.

$$x \equiv 2 \pmod{3}$$

$$x \equiv 3 \pmod{5}$$

$$x \equiv 2 \pmod{7}$$

Yechish. Modulni hisoblaymiz

$$M = 3 \cdot 5 \cdot 7 = 105$$

topilgan modul orqali M_i larni hisoblaymiz:

$$M_1 = \frac{105}{3} = 35$$

$$M_2 = \frac{105}{5} = 21$$

$$M_3 = \frac{105}{7} = 15$$

Har bir topilgan M_i lar uchun teskari elementni topamiz:

$$35 \cdot y_1 \equiv 1 \pmod{3}$$

$$21 \cdot y_2 \equiv 1 \pmod{5}$$

$$15 \cdot y_3 \equiv 1 \pmod{7}$$

Yuqoridagi tenglikdan ko'rinadiki, y_i larning qiymati quyidagicha ekan:

$$\begin{cases} y_1 = 2 \\ y_2 = 1 \\ y_3 = 1 \end{cases}$$

Yuqoridagi tengliklardan ushbu tenglamalar tizimining yagona bo'lgan yechimini (1) formula orqali topib olamiz :

$$\begin{aligned} x &\equiv \sum_{i=1}^3 a_i \cdot M_i \cdot y_i \pmod{M} \\ x &\equiv (2 \cdot 35 \cdot 2) + (3 \cdot 21 \cdot 1) + (2 \cdot 15 \cdot 1) \pmod{105} \\ x &\equiv 140 + 63 + 30 \pmod{105} \\ x &\equiv 233 \pmod{105} \\ x &\equiv (210 + 23) \pmod{105} \\ x &\equiv 23 \pmod{105} \end{aligned}$$

Demak, ushbu tenglamalar tizimi uchun $x = 23 \pmod{105}$ yagona yechimi ekan.

Xulosa

Modulyar arifmetika va taqqoslamalar bilan bog'liq muammolar sonlar nazariyasida va zamonaviy kriptografiyada muhim o'rin tutadi. Xitoy qoldiqlar teoremasi murakkab tenglamalar tizimini yechish uchun samarali usul bo'lib, ayniqsa, modul bo'yicha ishlash talab qilinadigan masalalarda qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov, M. (2024). Raqamli ta'lim davrida innovatsion tarbiya texnologiyalarining talabalar tarbiyaviy faoliyatidagi o'rnini. Физико-технологического образование, (1).

2. Tolibjon o'g, S. G. A. (2022). Boshqaruvlar aralash chegaralanishli bo'lgan hol uchun yopiq sodda graflarda quvish-qochish masalasi.

3. Qizi, D. J. U., & Qizi, S. J. U. (2023). Raqamli ta'lim davrida innovatsion tarbiya texnologiyalarining talabalar tarbiyaviy faoliyatga kirishishida tutgan o'rni. *Science and innovation*, 2(Special Issue 10), 564-566.
4. Xolmuradov, F. M. (2024). Differentsial tenglamalar fanini oqitishda kompetensiyaviy va adaptiv yondashuvlardan foydalanish metokasi. *Научный Фокус*, 1(11), 172-178.
5. Axmedovich, I. M. (2024). Xorijiy tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatini ijtimoiy kompetentlik asosida rivojlantirish zaruriyatlari. *Science and innovation*, 3(Special Issue 41), 446-449.
6. Polvanov, R. R. (2023). Ikkinchi tartibli gronuoll chegaralanishli boshqaruvlar uchun tutish masalasi. *research and education*, 2(12), 62-67.
7. Axmedovich, I. M. (2024). Xorijiy tajribalar tahlili asosida talabalar ijtimoiy-kasbiy kompetentligini rivojlantirishda hamkorlik mexanizmlari. *Science and innovation*, 3(Special Issue 16), 86-88.
8. Mamatxonovich, X. F., Erkinjonovna, S. Z., Tolibjon og, G. S., & Kosimovich, U. S. (2024). Applications of mathematical models in the teaching of mathematics: perspectives for geography majors. *Научный Фокус*, 1(11), 449-452.
9. Ibroximov, M. A. (2023). Professional ta'lim yo'nalishi talabalarining ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishda ta'lim va amaliyot integratsiyasi. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 175-179.
10. Старцев, А. Н., & Мирзаев, Т. С. (2011). О нестандартных методах оценивания в моделях авторегрессии в неустойчивых случаях. *Журнал Средневолжского математического общества*, 13(2), 25-35.
11. Старцев, А. Н., & Мирзаев, Т. С. О новом подходе к оценке параметров процесса авторегрессии второго порядка в критическом случае. *О'zbekiston matematika jurnali*, 151.
12. Muzaffarxo'jaevna, M. S. (2023). Differentsial tenglamalar fanini o'qitishda pedagogning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muammosining nazariy tahlili. *Journal of innovations in scientific and educational research*, 6(12), 74-78.
13. Muzaffarkhujayevna, M. S. (2021, December). Issues of teaching mathematics in secondary schools. In *Archive of Conferences* (pp. 69-70).
14. Maxsudova, S. (2020). On a boundary problem for an equation of shifted type with different orders of degeneracy. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(1), 36-39.
15. Maxsudova, S., & Hamitov, A. *Scientific Bulletin of Namangan State University*.